



TOG‘-KON SANOATI, GEOLOGIYA VA MINERAL
RESURSLAR SOHALARIDA KASBIY
MALAKALARNI RIVOJLANTIRISH BO‘YICHA
TARMOQ KENGASHI

KASBIY STANDART

FOYDALI QAZILMALARNI OCHIQ USULDA
QAZIB OLISH



“Foydali qazilmalarni ochiq usulda qazib olish” kasbiy standarti 2025-yil 18-dekabrda Kasbiy malakalarni rivojlantirish bo‘yicha Respublika kengashi majlisining 114-son bayoni bilan tasdiqlangan “Kasbiy standart shakli” hamda Milliy malaka tizimini rivojlantirish instituti direktorining 2025-yil 19-dekabrda 55-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Kasbiy standartlarni ishlab chiqish va yangilash metodologiyasi”ga muvofiq, Tog‘-kon sanoati, geologiya va mineral resurslar sohalarida kasbiy malakalarni rivojlantirish bo‘yicha tarmoq kengashi tomonidan ishlab chiqilgan.

KASBIY STANDART

Foydali qazilmalarni ochiq usulda qazib olish

Reyestr raqami:

UZ-KS-2026-T1.0-0026



I. Umumiy ma'lumotlar

1. Kasbiy standartning qo'llanilish sohasi: ushbu kasbiy standart "Ochiq kon ishchisi", "Buldozer mashinisti", "Ekskavator mashinisti" kasblari bo'yicha ta'lim dasturlarini ishlab chiqishda, kasbiy malakalarni mustaqil baholashda, shuningdek, tashkilotlarda xodimlarni boshqarish sohasida keng ko'lamli masalalarni hal qilishda qo'llaniladi.

2. Ushbu kasbiy standartda quyidagi asosiy tushunchalar va atamalar qo'llaniladi:

bilim – kasbiy faoliyat doirasidagi vazifalarni bajarish uchun zarur bo'ladigan, o'rganilgan va o'zlashtirilgan ma'lumotlar;

burg'ilash qurilmasi – tog' jinslarini teshib o'tish uchun mo'ljallangan mexanik uskunalar. Ko'mir konida portlatishdan oldin burg'ilash ishlari bajariladi;

DACUM – korxonaning tajribali xodimlaridan iborat ekspert guruhlarida tuzilgan guruh muhokamalarini o'tkazish usuli;

dispatcher aloqa tizimi – texnikalar va ishchilar o'rtasida bog'lanish uchun ishlatiladigan radioaloqa tizimi. Konda muvofiqlashtirishda muhim ahamiyatga ega;

foydali qazilma – tabiatda yer osti yoki yer yuzasida uchraydigan va insoniyat uchun iqtisodiy, sanoat, texnika yoki energetika maqsadlarida foydalanilishi mumkin bo'lgan tabiiy mineral yoki organik moddalardir;

funksional xarita – tarmoq kesimidagi barcha kasb va malakalarni darajalar bo'yicha tizimli va iyerarxik shaklda ifodalovchi tuzilma;

gidravlik tizim – ekskavator, buldozer va burg'ilagichlarda harakatni ta'minlaydigan bosim ostidagi suyuqliklar bilan ishlovchi mexanizm;

grunt – qaziladigan yoki suriladigan yer, tuproq, toshli qatlamlar yoki aralash massalar;

informal ta'lim – aniq maqsadga yo'naltirilgan, ammo institutsionallashtirilmagan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtirmagan), rasmiy yoki norasmiy ta'limdan ko'ra kamroq tashkillashtirilgan va tarkiblashtirilgan hamda oiladagi, ish joyidagi, yashash joyidagi va kundalik hayotdagi o'quv faoliyatini o'z ichiga olgan ta'lim shakli;

iqtisodiy faoliyat turi – savdo uchun mo'ljallangan mahsulot ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish) maqsadida u yoki bu turdagi resurslarni (uskunalar, mehnat, texnologiya va boshqalar) birlashtirishga asoslangan ishlab chiqarish jarayoni;

kasb – ko'nikma va bilimlarni talab qiladigan muayyan funksiyalar va vazifalarni bajarish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat turi;

kasb xaritasi – kasb nomi, mehnat funksiyalari tavsifi, kasbga qo'yiladigan asosiy xususiyatlar va talablarni o'z ichiga olgan muayyan kasb to'g'risidagi tizimlashtirilgan ma'lumotlarni o'z ichiga olgan kasbiy standartning tarkibiy elementi;

kasbiy standartlar reyestri – bu kasbiy standartlarning nomi, qamrab olingan kasblar, uni qabul qilishga oid qaror (buyruq) rekvizitlari hamda amal qilish muddatini o'z ichiga olgan tizimlashtirilgan ro'yxat;

ko'mir qatlami – bu yer ostida joylashgan, ko'mir tarkibiga ega bo'lgan qattiq va uzluksiz qatlam bo'lib, u ko'mir qazib olishga yaroqli bo'lgan geologik tuzilma hisoblanadi;

ko'mir – asosan ugleroddan tarkib topgan, organik kelib chiqishga ega bo'lgan qattiq foydali qazilma bo'lib, asosan yoqilg'i sifatida ishlatiladi;

kon ishchisi – foydali qazilmalarni (ko'mir, ruda, tuz, marmar va b.) yer ostidan yoki yer yuzasidan qazib olish, tashish va qayta ishlash jarayonlarida ishtirok etuvchi, maxsus texnik vositalar, mexanizmlar yoki qo'l mehnati bilan ishlovchi sanoat xodimidir;

kon yo'nalmasi – foydali qazilma qazilayotgan faol ish uchastkasi. Bu yerda doimiy texnika harakati bo'ladi;

kon – foydali qazilmalar (masalan: ko'mir, neft, gaz, temir rudasi, oltin, mis, tuz va boshqalar) yer ostida yoki yer yuzasida tabiiy holatda to'plangan joy bo'lib, sanoat usullari bilan ularni qazib olish mumkin bo'lgan maydondir;

ko'nikma – mehnat vazifasi doirasida alohida yoki yakka harakatlarni jismoniy va aqliy jihatdan bajarish;

mehnat funksiyasi – kasbiy faoliyat doirasida xodim tomonidan belgilangan natijaga erishish uchun amalga oshiriladigan mehnat vazifalari majmui;

mehnat harakatlari – xodimning mehnat predmeti bilan o'zaro ta'sirida muayyan mehnat natijasiga erishiladigan jarayon;

mehnat vazifasi – mehnat funksiyasi doirasida xodimga yuklanadigan (topshiriladigan) ishning aniq turi;

norasmiy ta'lim – ta'lim xizmatlari taqdim etilishini ta'minlovchi shaxs yoki tashkilot tomonidan institutsionallashtirilgan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtiruvchi), aniq maqsadga yo'naltirilgan va rejalashtirilgan, shaxsni butun hayoti davomida o'qitishdagi rasmiy ta'limga qo'shimcha va (yoki) uning muqobil shakli;

pichoq (buldozer blade) – buldozerdagi old tomonga o'rnatilgan keng metall plastina bo'lib, u yer qatlamlarini oldinga surish uchun ishlatiladi;

portlatish teshigi (skvajnina) – portlatish uchun mo'ljallangan joylarga oldindan burg'ilab ochiladigan maxsus teshiklar;

portlovchi modda (portlovchi materiallar) – tog' jinslarini portlatish orqali sindirish uchun ishlatiladigan kimyoviy vosita. Maxsus joyda saqlanadi va litsenziya bilan ishlatiladi;

qazish sikli – ekskavator yoki buldozer tomonidan bajariladigan to'liq ish harakati ketma-ketligi: qazish, ko'tarish, tashish va tushirish;

rekultivatsiya – konchilik, qurilish yoki boshqa ishlab chiqarish faoliyatlari natijasida zarar ko'rgan yoki buzilgan yer maydonlarini (masalan, konlar, shaxtalar) qayta tiklash va uni tabiatga yoki xo'jalik faoliyatiga yaroqli holga keltirish jarayoni;

shtrek – kon ichida gorizontali yoki biroz qiyalik bilan qazilgan yo'l bo'lib, u orqali ishchilar harakatlanadi yoki foydali qazilmalar tashiladi;

sig'im (chelaksig'im, yuk sig'imi) – ekskavator kovshi yoki yuk mashinasining bir martalik yuk ko'tara oladigan maksimal hajmi (odatda kubometrda o'lchanadi);

sterjen (burg'ilash sterjeni) – burg'ilash qurilmasida yer qatlamlarini teshish uchun ishlatiladigan uzun metall tayoq yoki quvur;

tirkama (pritsep) – yuk tashishda ekskavator yoki boshqa texnika orqasiga ulanadigan yuk tashish vositasi;

toshli qatlam – qazish jarayonida duch kelinadigan zich, qattiq tosh qatlamlari. Ularni qazish uchun ko'pincha portlatish kerak bo'ladi;

tozalash ishlari – kon ichidagi ish maydonlarini, yo'llarni yoki texnikaning atrofini tuproq, tosh, chiqindilardan tozalash;

xavfli zona – texnika harakati, portlatish yoki qazish ishlari olib borilayotgan, odamlar kirishi cheklangan hudud;

yer sathi – yer sharining inson ko'ziga ko'rinadigan, ustki (tashqi) qatlami, ya'ni quruqlik va suv bilan qoplangan yuzasidir. Bu sath biz har kuni bosib yuradigan tuproq, tog', dasht, cho'l, o'rmon, dengiz, daryo va boshqa tabiiy shakllarni o'z ichiga oladi;

zaxira (rezerv) – konda joylashgan, miqdori aniqlangan va kelajakda qazib olinadigan foydali qazilma hajmi.

3. Kasbiy standartni ishlab chiqishga asos bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlar:

O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 22-sentabrdagi "Mehnatni muhofaza qilish to'g'risidagi"gi O'zbekiston Respublikasi qonuniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida" gi O'RQ-410-son qonuni;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 16-oktabrdagi "Kasbiy ta'limda malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va xalqaro ta'lim dasturlarini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-158-son farmoni;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrdagi "2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-436-son qarori;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentabr "O'zbekiston Respublikasi milliy malaka tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-345-son qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 24-avgust "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 275-son qarori, O'zMSt 640:2025 (IFUT-2.1);

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 14-iyuldagi "O'n sakkiz yoshga to'lmagan shaxslarning mehnatidan foydalanilishi taqiqlangan og'ir ishlarning hamda zararli yoki xavfli mehnat sharoitlaridagi ishlarning ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida"gi 290-son qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 17-iyundagi "O'zbekiston Respublikasi milliy malaka tizimini tartibga solishga qaratilgan ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 369-son qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 10-oktabrdagi "Imtiyozli shartlarda pensiyaga chiqish huquqini beruvchi ishlab chiqarishlar, muassasalar, ishlar, kasblar, lavozimlar va ko'rsatkichlarning ro'yxatini hamda ushbu ro'yxatga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 637-son qarori;

Mashg'ulotlarning milliy klassifikatori (MMK-2025), O'zMSt 641:2025;

4. Ushbu Kasbiy standartda quyidagi qisqartmalar qo'llaniladi:

TMR – Tarmoq malakalar ramkasi;

IFUT — Iqtisodiy faoliyat turlari umumdavlat tasniflagichi;

T/r – tartib raqami;

ShHV- shaxsiy himoya vositalari.

II. Kasbiy standartning pasporti

1.	Kasbiy standartning nomi:	Foydali qazilmalarni ochiq usulda qazib olish	
2.	Kasbiy faoliyatning asosiy maqsadi:	Foydali qazilmalarni ochiq usulda qazib olish sohasida xavfsiz, samarali va ekologik jihatdan maqbul tarzda yer qa'ridan foydali zaxiralarni ajratib olish, ularni belgilangan texnologik talablar asosida qazib olish, tashish va saqlash ishlarini tashkil etish orqali sanoat ehtiyojlarini qondirish hamda resurslardan oqilona foydalanishni ta'minlash	
3.	IFUT bo'yicha seksiya, bo'lim, guruh, sinf va kichik sinf:	B seksiyasi Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash; 05 Ko'mir va lignit qazib olish; 05.1 Toshko'mir qazib olish; 05.10 Toshko'mir qazib olish; 05.10.0 Toshko'mir qazib olish.	
4.	Kasbiy standartning qisqacha mazmuni:	Mazkur kasbiy standart ochiq usulda qazib olish jarayonlarini me'yorlashtirish orqali ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, resurslardan oqilona foydalanish va yo'qotishlarni kamaytirishni nazarda tutadi. Shuningdek, mutaxassislarning kasbiy kompetensiyalarini aniqlash, mehnat muhofazasi va sanoat xavfsizligini ta'minlash, yangi texnologiyalarga moslashuvchanlikni oshirish, ekologik talablarga rioya etish, ta'lim va malaka oshirish jarayonlarini rivojlantirish hamda konchilik korxonalarini uchun yagona yondashuvni shakllantirishga qaratilgan.	
5.	Qamrab olingan kasblar ro'yxati va malaka darajasi:	Kasblar kodi va nomi:	TMR dagi malaka darajasi:
		81112002 Ochiq kon ishchisi	2
		83421001 Buldozer mashinisti	3
		83421002 Ekskavator mashinisti	3

III. Kasbiy faoliyat turining funksional xaritasi

Kasblar		Mehnat funksiyalari		Mehnat vazifalari	
T/r	Kodi va nomi	Kodi	Nomi	Kodi	Nomi
1.	81112002 Ochiq kon ishchisi	A1.2	Ochiq konlarda yordamchi ishlarni bajarish	A1.01.2	Ish joyini tayyorlash, chiqindilarni tozalash va ish maydonini tartibga keltirish
				A1.02.2	Qazish, yuklash va tashish jarayonida yuqori malakali ishchilarga yordam berish
				A1.03.2	Qazilgan tog' jinslarini qo'lda ajratish, saralash yoki to'plash
				A1.04.2	Qazish texnikalariga xizmat ko'rsatishda (yoqilg'i, suv, asboblarni yetkazish) yordam berish
		A2.2	Ochiq konlarda burg'ilash, portlatish va yuklash jarayonlariga tayyorgarlik ishlarini bajarish	A2.01.2	Burg'ilash joyini tozalash va tayyorlash
				A2.02.2	Portlatish ishlari uchun xavfsizlik zonasini to'sish va belgilash
				A2.03.2	Qazilgan materiallarni belgilangan joyga qo'lda to'plash yoki surish
2.	83421001 Buldozer mashinisti	B1.3	Ish joyini tayyorlash va texnikani ishga hozirlash	B1.01.3	Ish joyining xavfsiz holatini ta'minlash maqsadida tekshiruv o'tkazish va to'sqinlik qiluvchi buyum hamda chiqindilarni tozalash
				B1.02.3	Buldozerni texnik ko'rikdan o'tkazish, yoqilg'i, moy va sovitish suyuqliklarini me'yorda to'ldirish
				B1.03.3	Ishga tushirishdan oldin barcha boshqaruv tizimlarini tekshirish va texnika xavfsizligi bo'yicha ko'rsatmalarga muvofiq ishga tayyorgarlik ko'rish
		B2.3	Yer qazish, tekislash va surish ishlarini bajarish	B2.01.3	Belgilangan maydonda gruntning surish, yoyish va tekislash ishlarini bajarish
				B2.02.3	Qazish va to'kish jarayonida gruntning turi va zichligiga qarab ish tartibini tanlash
				B2.03.3	Belgilangan yo'nalish bo'yicha materialni surish, qiyalik va chuqurlikni nazorat qilish
				B2.04.3	Buldozerda ishlash vaqtida energiya tejamkor va samarali boshqaruvni amalga oshirish
				B2.05.3	Buldozerda ish yakunida texnikani tozalash, tekshirish va saqlash joyiga joylashtirish

3.	83421002 Ekskavator mashinisti	D1.3	Ekskavatorni ishga tayyorlash va kon sharoitiga moslashtirish	D1.01.3	Ish joyini tayyorlash va xavfsizlik talablariga rioya etish
				D1.02.3	Kon sharoitiga mos ish rejimini tanlash va sozlash
		D2.3	Tog' jinslari va gruntni qazib olish ishlarini amalga oshirish	D2.01.3	Qazish joyini tayyorlash va tog' jinslarini me'yorlarga muvofiq qazish
				D2.02.3	Qazib olingan massani yuklash va joylashtirish ishlarini bajarish
		D3.3	Ekskavatorga texnik xizmat ko'rsatish va ishchi holatda saqlash	D3.01.3	Ekskavatorning texnik holatini tekshirish va nazorat qilish
				D3.02.3	Rejalashtirilgan texnik xizmat ishlarini bajarish
				D3.03.3	Nosozliklarni bartaraf etish hamda ekskavatorni yaroqliligini uzoq muddatda saqlash

IV. Kasblar xaritasi va mehnat funksiyalari tavsifi

Kasbning nomi:	Ochiq kon ishchisi	
Mashg'ulot nomining kodi:	81112	
TMR bo'yicha malaka darajasi:	2	
Malakani baholashga qo'yiladigan talablar	Tavsiya etiladi	
Amaliy tajriba (ish staji)ga qo'yilgan talablar:	Talab etilmaydi	
Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar:	<p>Kamida 18 yoshga to'lgan shaxslar; Jinsi: erkak; mehnat muhofazasi bo'yicha bilim sinovidan o'tganligi to'g'risidagi hujjat; dastlabki va davriy tibbiy ko'rikdan o'tganligi; mehnat jarayonini xavfsiz va tartibli tashkil eta olish; qo'lda ishlash asboblari (belkurak, ketmon, chelak va boshqalar) to'g'ri qo'llay olish; qazilgan materiallarni to'g'ri joylashtirish va saralash; portlatish va burg'ilash ishlarida yordam berish hamda xavfsizlik zonasini belgilash; ish joyini tozalash va keyingi jarayonga tayyor holatga keltirish. brigada a'zolari bilan jamoaviy ishlay olish va mehnat intizomiga rioya qilish; topshiriqlarni aniqlik bilan bajarish, xavfsizlik qoidalariga rioya qilish; og'ir mehnat va ochiq havoda ishlash sharoitlariga moslashuvchanlik; xavfli holatlarni tezda aniqlash va oldini olish; brigada bilan hamkorlikda ishlash, yangi ish usullariga tez moslashuvchanlik.</p>	
Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar:	umumiy o'rta ta'lim	
Norasmiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi:	tayanch o'rta ta'lim + ish joyida qisqa muddatli o'qitish (instruktaj) yoki qisqa muddatli kurslar yoki amaliy tajriba	
Kasbiy standartlar reyestrda mavjudligi:		
Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari:	1-2 razryadli yordamchi ishchi 3-5 razryadli yer usti kon ishchisi	
Boshqa kasblar bilan aloqadorligi:	TMR bo'yicha malaka darajasi:	Kasbning nomi:
	3	Burg'ilash qurilmasi mashinisti
	4	Ekskavator mashinisti
	5	Tog'-kon sanoati brigadiri
	5	Konchilik texnigi

Mehnat funksiyalarining tavsifi		
Kodi va nomi	Mehnat vazifalari	
<p>A1.2 - Ochiq konlarda yordamchi ishlarni bajarish</p>	<p>A1.01.2 - Ish joyini tayyorlash, chiqindilarni tozalash va ish maydonini tartibga keltirish</p>	O'qitish natijalari
		Mehnat harakatlari:
		1. Ish boshlanishidan oldin ish joyining holatini vizual tekshirish
		2. Kon maydonida xavfli tosh, metall yoki chiqindilarni aniqlash va ularni olib tashlash
		3. Ish joyi atrofida ortiqcha buyumlar, asbob va chiqindilarni yig'ishtirish
		4. Qazish yoki yuklash zonalarida yo'laklarni tozalash va silliqlash
		5. Belgilangan chiziqlar bo'yicha ish joyining chegarasini belgilash
		6. Ishni tugatgach, joyni tartibga keltirish va chiqindilarni maxsus joyga tashlash
		7. Asboblarni tozalash va ularni belgilangan joyga joylashtirish
		8. Rahbar yoki ustaning ko'rsatmasiga ko'ra, xavfsizlik belgilari o'rnatilishiga yordam berish
		Ko'nikmalar:
		Ish joyini mehnat xavfsizligi talablariga muvofiq tayyorlay olish
		Oddiy mexanik asboblardan to'g'ri foydalanish
		Qazilgan joyda chiqindilarni saralash va xavfli materiallarni ajrata olish
		Ish joyini samarali tashkil etish
		Atrof-muhitni ifloslantirmaslik bo'yicha amaliy malakaga ega bo'lish
		Ish jarayonida shaxsiy himoya vositalarini to'g'ri ishlata olish
		Bilimlar:
		Ochiq kon ish joyining tuzilishi va xavfli zonalar haqida asosiy tushunchalar
		Ish joyini tayyorlashda mehnat xavfsizligi va sanitariya-gigiyena qoidalari
		Chiqindilarni to'g'ri yig'ish va utilitatsiya qilish tartibi
		Oddiy mexanik asbob-uskunalarining vazifasi va ishlatish qoidalari
		Shaxsiy himoya vositalarining turlari va ularni to'g'ri kiyish tartibi
Ish joyini tartibli saqlashning ishlab chiqarish unumdorligiga ta'siri qoidalari		
Ochiq kon ish joyining tuzilishi va xavfli zonalar haqida asosiy tushunchalar		

	A1.02.2 - Qazish, yuklash va tashish jarayonida yuqori malakali ishchilarga yordam berish	Mehnat harakatlari:
		1. Ish boshlanishidan oldin rahbardan topshiriqni olish
		2. Qazish joyida ishlayotgan texnika atrofini tozalash va xavfsiz ish zonasini belgilash
		3. Qazilgan tog' jinslarini belgilangan joyga surish yoki qo'lda yig'ishtirish
		4. Yuk mashinalarini to'g'ri joylashtirishga ko'maklashish
		5. Burg'ilash va portlatishdan keyingi joylarni tozalashda yordam berish
		6. Texnika ishida yuzaga kelgan mayda nosozliklarni ustaga xabar qilish
		7. Ish jarayonida xavfsizlik masofasini saqlash va signal belgilariga amal qilish
		Ko'nikmalar:
		Texnika yaqinida xavfsiz ishlash qoidalarini amalda qo'llay olish
	Qazilgan tog' jinslarini to'g'ri joylashtirish va joyni tartibda saqlay olish	
	Yuk mashinasini to'g'ri yo'naltirishga yordam bera olish	
	Qazish, yuklash va tashish jarayonida o'z harakatlarini jamoaviy ishga muvofiqlashtirish	
	Ekskavator, yuk mashinasi yoki buldozer ishlayotgan zonada xavfsiz masofani saqlash va rioya qilish	
	Asbob-uskunalardan to'g'ri foydalanish	
	Bilimlar:	
	Qazish, yuklash va tashish jarayonlarining umumiy ketma-ketligi	
	Kon texnikasi bilan ishlashda xavfsizlik qoidalari	
	Signal tizimlari va qo'l harakati belgilari	
	Mehnat xavfsizligi, sanoat gigiyenasi va ekologiya asoslari	
Oddiy mexanik asboblarning vazifasi va ishlatish usullari		
Jamoaviy ishda intizom, muloqot va o'zaro yordam madaniyati		
A1.03.2 - Qazilgan tog' jinslarini qo'lda ajratish, saralash yoki to'plash	Mehnat harakatlari:	
	1. Qazilgan tog' jinslarini vizual tekshirish	
	2. Foydali qazilmani chiqindi jinslardan qo'lda ajratish	
	3. Saralangan jinslarni turiga yoki sifatiga qarab alohida joylarga yig'ish	
	4. Qo'l asboblari yordamida tog' jinslarni ajratish	
	5. Qazilgan materialni belgilangan joyga to'plash yoki konteynerlarga solish	
	6. Saralangan jinslar to'plangan joyni tozalab, ishni yakunlagach joyni tartibga keltirish	
	7. Ish davomida chiqindilarni xavfsiz masofada to'plash va olib chiqish	

		Ko'nikmalar:
		Tog' jinslarini tashqi belgilari bo'yicha ajrata olish
Qazilgan jinslarni qo'lda saralash jarayonini mehnat xavfsizligi talablariga muvofiq bajarish		
Ishni bajarish uchun maxsus asboblardan ishlay olish		
Saralangan jinslarni to'g'ri joylashtirish va belgilangan tartibda saqlay olish		
Ish joyini toza va tartibli holatda saqlash		
Bilimlar:		
Tog' jinslarining asosiy turlari va ularning tashqi belgilarini ajrata olish bo'yicha qoidalar		
Foydali qazilmalarni ajratish va saralash jarayonini ketma-ketligida bajarish		
Mehnat xavfsizligi, ishlab chiqarish sanitariyasi va ekologik talablar asosida ish yuritish		
Saralashda ishlatiladigan oddiy qo'l asboblarning vazifasi va to'g'ri ishlatish		
Ish joyini tartibli saqlash qoidalari		
A1.04.2 - Qazish texnikalariga xizmat ko'rsatishda (yoqilg'i, suv, asboblardan yetkazish) yordam berish	Mehnat harakatlari:	1. Usta yoki mexanikdan topshiriqni olish va kerakli jihozlarni tayyorlash
		2. Yoqilg'i, suv yoki texnik suyuqliklarni belgilangan idishlarga to'ldirish
		3. Belgilangan yo'l orqali texnikaning joylashgan joyga xavfsiz tarzda olib borish
		4. Texnikaning yonida yoqilg'i quyish yoki suv yetkazishda ustaga yordam berish
		5. Asboblarni uzatish yoki olib kelish
		6. Ish jarayonida yoqilg'i to'kilmaligi, suv chiqmasligi uchun nazorat qilish
		7. Yoqilg'i idishlarini xavfsiz joyga joylashtirish va sarf miqdorini qayd etish
		8. Ish yakunida asbob va idishlarni tozalab, joyiga qo'yish
	Ko'nikmalar:	Mehnat xavfsizligi talablariga mos shaxsiy himoya vositalarini to'g'ri tanlash, kiyish va ulardan foydalanish
		Ish joyini xavfsiz holatga keltirish va nazorat qila olish
		Texnik vositalar bilan xavfsiz ishlay olish
		Texnika xavfsizligi belgilari va ogohlantiruvchi signallarni tushunish va ularga amal qilish
		Favqulodda holatlarda to'g'ri harakat qilish
		Bilimlar:
		Mehnat muhofazasiga oid qonunlar, normativ hujjatlar
		Shaxsiy himoya vositalari (SHHV)ning turlari
		Saralash va tashishda ishlatiladigan texnik vositalar
		Favqulodda vaziyatlarda harakat qilish tartibi
Ish joyini tartibga keltirish va sanitariya gigiyena talablari		

	Ma'suliyat va mustaqillik	<ol style="list-style-type: none"> 1. Belgilangan vazifalarni o'z vaqtida bajarish 2. Mehnat va texnika xavfsizligi qoidalariga rioya qilish 3. Ish qurollari va materiallarga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish 4. Ish joyi tartibini saqlash 5. Oddiy, takroriy ishlarni nazorat ostida bajarish
<p style="text-align: center;">A2.2 - Ochiq konlarda burg'ilash, portlatish va yuklash jarayonlariga tayyorgarlik ishlarini bajarish</p>	<p style="text-align: center;">A2.01.2 - Burg'ilash joyini tozalash va tayyorlash</p>	<p>Mehnat harakatlari:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Usta yoki burg'ilovchi rahbarligida ish joyining chegarasini aniqlash 2. Burg'ilash maydonini tosh, chiqindi, metall yoki ortiqcha materiallardan tozalash 3. Burg'ilash uchun mo'ljallangan joyni belgilash va belgilarga ogohlantiruvchi lenta yoki tayoqchalar o'rnatish 4. Burg'ilash texnikasi kirib kelishi uchun yo'lni tekislash va tozalash 5. Burg'ilash asboblari (burg'u, quvur, suv shlangi va boshqalar)ni joyiga yetkazish va joylashtirishda yordam berish 6. Suv, yoqilg'i yoki boshqa zarur vositalarni burg'ilovchi ustaning ko'rsatmasiga muvofiq olib kelish 7. Burg'ilash joyida xavfsizlik belgilarini o'rnatishda ishtirok etish 8. Ish jarayonida hosil bo'lgan chiqindilarni olib chiqish va joyni tartibga keltirish <p>Ko'nikmalar:</p> <p>Burg'ilash maydonini tozalash va tayyorlash ishlarini xavfsiz hamda samarali bajara olish</p> <p>Qo'l asboblari, belkurak, supurgi, tayoqcha, chelak, belgi lentadan to'g'ri foydalanish</p> <p>Texnikalar uchun kirish yo'lini tekislash va xavfsiz holatda saqlay olish</p> <p>Asbob va jihozlarni to'g'ri ko'tarish, tashish va joylashtira olish</p> <p>Jamoa bilan hamkorlikda ishlash, ustaning topshiriqlariga aniq amal qilish</p> <p>Burg'ilash joyida xavfli zonalarni aniqlash va ulardan uzoqlashish</p> <p>Bilimlar:</p> <p>Burg'ilash ishlarining umumiy jarayoni va tayyorlov bosqichlari haqida asosiy tushuncha</p> <p>Burg'ilash texnikasining ishlash printsiipi</p> <p>Mehnat xavfsizligi va portlatish oldi xavfsizlik qoidalari</p> <p>Ish joyini tozalash va tayyorlashda ekologik va sanitariya-gigiyenik talablar</p> <p>Qo'l asboblari va yordamchi vositalarning vazifasi hamda ulardan foydalanish tartibi</p> <p>Belgilash, ogohlantirish va xavfsizlik belgilarining ahamiyati</p>

	A2.02.2 - Portlatish ishlari uchun xavfsizlik zonasini to'sish va belgilash	Mehnat harakatlari:
		1. Rahbar, portlatish ustasi yoki burg'ilash brigadiridan xavfsizlik zonasi chegaralari haqida ko'rsatma olish
		2. Portlatish maydonining atrofini aniqlab chiqish va to'siq o'rnatiladigan joylarni belgilash
		3. Ogohlantiruvchi belgilar, lenta, bayroqchalar yoki panjaralarni olish va tayyorlash
		4. Belgilangan xavfsizlik chizig'i bo'ylab to'siqlarni o'rnatish
		5. Ogohlantiruvchi, "Xavfli zona", "Portlatish ishlari olib borilmoqda" kabi yozuvlarni joylashtirish
		6. Xavfsizlik zonasi ichida ortiqcha odamlar, texnika va asboblarni yo'qligini tekshirishda yordam berish
		7. Portlatish jarayonidan oldin rahbar bilan birga hududni qayta ko'zdan kechirish
		8. Portlashdan keyin belgilarni olib tashlash va joyni tozalash
		Ko'nikmalar:
		Xavfsizlik zonalarini aniqlash va belgilash tartibini amalda qo'llay olish
		Ogohlantiruvchi belgilar, lenta va panjaralarni to'g'ri o'rnatish
		Belgilangan xavfsizlik masofasini saqlash va boshqalarga tushuntirish
		Jamoaviy ishda intizom va mas'uliyatni saqlagan holda ustaning topshiriqlarini bajarish
	Portlatish ishlari oldidan texnikalar va odamlarning hududdan olib chiqilishiga yordam berish	
	Portlatish joyidagi xavf belgilarini o'qiy olish va ularga rioya qilish	
	Bilimlar:	
	Portlatish ishlarining umumiy bosqichlari	
	Xavfsizlik zonalarini belgilashda amal qilinadigan me'yorlar	
	Ogohlantiruvchi belgilar va ularning rang, shakl bo'yicha turlari	
Portlovchi moddalar bilan ishlashda qat'iy taqiqlar va xavfsizlik choralari		
Texnika xavfsizligi, yong'in xavfsizligi va favqulodda holatda harakat qilish tartibi		
Ekologik xavfsizlik va ishlab chiqarish intizomi talablari		
A2.03.2 - Qazilgan material-larni belgilangan joyga qo'lda to'plash yoki surish	Mehnat harakatlari:	
	1. Rahbar, usta yoki brigadirdan qazilgan materiallarni joylashtirish bo'yicha ko'rsatmalar olish	
	2. Ish joyini xavfsiz holatga keltirish va atrofdagi to'siqlarni aniqlab chiqish	
	3. Qazilgan tog' jinslarini belgilangan yo'nalishda qo'lda to'plash yoki surish	
	4. Belgilangan joyga tog' jinslarini chelak, belkurak, ketmon yoki boshqa mos vositalar yordamida tashish	

	<p>5. Qoldiqlarni yoki mayda chiqindilarni tozalab, ish joyini tartibga keltirish</p> <p>6. Ish davomida belgilangan texnika xavfsizligi qoidalariga qat'iy rioya qilish</p> <p>7. Ish tugagach, asbob-uskunalarni tozalash va joyiga topshirish</p> <p>Ko'nikmalar:</p> <p>Qazilgan tog' jinslarini qo'lda to'plash, ajratish va joylashtirishda mehnat harakatlarini to'g'ri bajara olish</p> <p>Belkurak, ketmon, chelak kabi oddiy asboblarni to'g'ri va xavfsiz ishlata olish</p> <p>Ish joyida qulay holatda ishlash va ortiqcha kuch sarflamasdan mehnat unumdorligini oshirish</p> <p>Materiallarni belgilangan yo'nalishda to'plashda tartib va aniqlikni saqlash</p> <p>Ish jarayonida xavfsizlik masofasini saqlash va jamoaviy ishda muvofiqlikni ta'minlash</p> <p>Ish joyini ish tugagach tozalash va keyingi bosqich uchun tayyor holatga keltira olish</p> <p>Bilimlar:</p> <p>Tog' jinslari va ularning zichlik, hajm xususiyatlari haqida boshlang'ich bilimlar</p> <p>Qazilgan materiallarni to'g'ri joylashtirish tartibi va mehnat gigiyenasi qoidalari</p> <p>Qo'lda ishlatiladigan asboblarning turlari, tuzilishi va ulardan xavfsiz foydalanish usullari</p> <p>Ish joyini tozalash, chiqindilarni to'g'ri yig'ish va tashish tartibi</p> <p>Texnika xavfsizligi, mehnatni muhofaza qilish va shaxsiy himoya vositalaridan foydalanish qoidalari</p> <p>Ishlab chiqarish intizomi va brigada bilan o'zaro hamkorlik tamoyillari</p>
Mas'uliyat va mustaqillik:	<p>1. Belgilangan vazifalarni malaka talablariga va lavozim majburiyatlariga muvofiq hal qilish uchun javobgarlik</p> <p>2. Ishlarni usta yoki brigadir ko'rsatmasi asosida bajarish</p> <p>3. Kam darajada mustaqil, ammo o'z ishiga mas'uliyat bilan yondashishi talab qilinadi</p> <p>4. Ish joyining tozaligi, tartibi va xavfsizligini ta'minlashda, shuningdek, yuqori malakali mutaxassislarga yordam berish jarayonida o'z vaqtida va sifatli ish bajarish uchun mas'ullik</p> <p>5. Belgilangan vazifalarni rahbar nazorati ostida amalga oshirish, biroq ayrim oddiy ish jarayonlarini mustaqil tashkil etish va bajarish</p>

<p>Texnik va/yoki texnologik talab:</p>	<p>Ish joyida foydalaniladigan qazish, yuklash, tashish va burg'ilash texnikalarining tuzilishi, ishlash prinsipi hamda xavfsiz foydalanish qoidalarini bilishi lozim.</p> <p>Asbob-uskunalar, moslamalar, idishlar, shlanglar va boshqa ish qurollarini to'g'ri ishlatish va saqlash talablariga rioya qilishi kerak.</p> <p>Yoqilg'i, moy, suv va boshqa texnik vositalarni me'yorida va xavfsiz tarzda ishlatish bo'yicha ko'rsatmalarga amal qilishi shart.</p> <p>Texnika xavfsizligi, mehnat muhofazasi, yong'in xavfsizligi va ekologik talablarni amalda qo'llay bilishi kerak.</p> <p>Texnik jarayonlarni bajarishda rahbar ko'rsatmasiga binoan texnologik ketma-ketlikka rioya qilishi lozim.</p> <p>Ish joyida yuzaga keladigan nosozliklar yoki xavfli holatlar haqida zudlik bilan ustasiga yoki brigadirga xabar berish majburiydir.</p> <p>Texnik xizmat ko'rsatish ishlarida soddalashtirilgan nazorat va yordamchi amallarni bajarish (masalan, asboblarni yetkazish, tozalash, tayyorlash) ko'nikmasiga ega bo'lishi kerak.</p> <p>Qo'lda ishlatiladigan asboblari: belkurak, ketmon, cho'mich, kramp, temir tayoq, bolg'a, ketmoncha, sanchqi, metalli chelaklar.</p> <p>O'lchov va nazorat vositalari: ruletk, chizg'ich, sath o'lchagich (niveller), belgi tayoqchalari.</p> <p>Texnika va mexanizmlar: ekskavator, buldozer, avtogreyder, yuk mashinasi (samossal), burg'ilash agregati, suv nasosi.</p> <p>Yordamchi vositalar: yoqilg'i va suv tashish uchun idishlar, shlanglar, asbob qutisi, yog'lash moslamalari, signal belgilar, xavfsizlik to'siqlari.</p> <p>Shaxsiy himoya vositalari (SHHV): kaska, qo'lqop, himoya etiklari, ko'zoynak, nafas olish niqobi, maxsus kiyim.</p>
------------------------------------------------	-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------

Kasbning nomi:	Buldozer mashinisti	
Mashg'ulot nomining kodi:	83421	
TMR bo'yicha malaka darajasi:	3	
Malakani baholashga qo'yiladigan talablar	Tavsiya etiladi	
Amaliy tajriba (ish staji)ga qo'yilgan talablar:	Talab etilmaydi	
Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar:	<p>Buldozer mashinisti A–F toifadagi transmissiya guvohnomasiga ega bo'lish; Kamida 18 yoshga to'lgan shaxslar; Jinsi: erkak bo'lishi; Mas'uliyatlilik; Stressga chidamlilik; Intizomlilik; Mustaqillik; Diqqat-e'tiborli bo'lish; Yaxshi ko'z o'lchovi (masofani aniq baholay olish); Jismonan rivojlangan va bardoshli bo'lish; Yaxshi muvofiqlashtirish (harakatlar koordinatsiyasi); Vaziyatni tez baholash va qaror qabul qilish qobiliyati; Nostandart vaziyatlarda tashabbus ko'rsatish; Zararli odatlarning yo'qligi.</p>	
Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar:	Boshlang'ich professional ta'lim; o'rta maxsus ta'lim;	
Norasmiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi:	umumiy o'rta ta'lim + norasmiy (informal) ta'lim yoki amaliy tajriba	
Kasbiy standartlar reyestrda mavjudligi:		
Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari:	5-6 -razryadli Tog' qazish dastgohi mashinisti	
Boshqa kasblar bilan aloqadorligi:	TMR bo'yicha malaka darajasi:	Kasbning nomi:
	3	Yuk ortgich mashinisti
	4	Ekskavator mashinisti
	4	Avtogreyder mashinisti
	5	Texnik-mexanik
	6	Geodezist
Mehnat funksiyalarining tavsifi		
Kodi va nomi	Mehnat vazifalari	
B1.3 - Ish joyini tayyorlash va texnikani ishga hozirlash	B1.01.3 - Ish joyining xavfsiz holatini ta'minlash maqsadida tekshiruv o'tkazish va to'sqinlik qiluvchi buyum hamda chiqindilarni tozalash	O'qitish natijalari
		Mehnat harakatlari:
		1. Ish joyiga kirishdan oldin xavfsizlik belgilarini, yo'laklarni va to'siqlarni tekshirish
		2. Ish maydonini ko'zdan kechirish, notekis joylar, teshiklar, to'siqlar yoki xavfli zonalarini aniqlash
		3. Yer sathidagi tosh, metall bo'lak, yog'och, chiqindi va boshqa to'sqinlik qiluvchi narsalarni olib tashlash
		4. Asbob va moslamalarni ishga tayyor joyga qo'yish, keraksiz narsalarni olib chiqish
		5. Tozalangan hududni belgilash va rahbarga ishga tayyorligi haqida xabar berish

		Ko'nikmalar:
		Ichki mehnat tartibi qoidalariga rioya qilish
		Korxonaning amaldagi ichki yo'riqnomalari talablariga rioya qilish
		Ish joyini xavfsiz va toza holda saqlashni ta'minlash
		Texnika xavfsizligi qoidalariga rioya qilish
		Zarurat tug'ilganda ish joyida yong'in o'chirish vositalaridan foydalanish
		Chiqindilarni turiga qarab ajratish va xavfsiz tarzda yo'qotish
		Oddiy mehnat asboblarni to'g'ri ishlata olish
		Yuk ko'tarish mexanizmi mashinistiga signal berish qoidalariga rioya qilish
		Ish joyida xavfli zonalarni aniqlay olish va ularni belgilash
		Rahbar ko'rsatmasiga binoan ish joyini tayyorlash ketma-ketligini bajara olish
		Bilimlar:
		Ichki mehnat tartibi qoidalar
		Xizmat ko'rsatilayotgan yuk ko'tarish mashinasining umumiy tuzilish
	Ish joyini tayyorlash bo'yicha mehnat va texnika xavfsizligi talablari	
	Atrof-muhitni muhofaza qilish hamda chiqindilarni to'g'ri yo'qotish tartibi	
	Asbob-uskunalarni saqlash va ulardan foydalanish qoidalar	
	Yuk ko'tarish mexanizmlarini ekspluatatsiya qilishda sanoat xavfsizligini ta'minlash qoidalar	
	Yuklarni stropovkalash va ilib mahkamlash usullari	
	B1.02.3 - Buldozerni texnik ko'rikdan o'tkazish, yoqilg'i, moy va sovitish suyuqliklarini me'yorda to'ldirish	Mehnat harakatlari:
		1. Ishni boshlashdan oldin buldozerni tashqi tomondan vizual ko'zdan kechirish
		2. Moy darajasini o'lchov tayoqchasi (shchup) orqali tekshirish
		3. Yoqilg'i, gidravlik moy, dvigatel moyi va sovitish suyuqligi darajasini belgilangan me'yorga keltirish
		4. Yoqilg'i va moy quyishda tegishli idish va nasoslardan xavfsiz foydalanish
		5. Texnik nosozlik, sizib chiqish yoki yetishmovchilik aniqlansa, rahbarga xabar berish
		6. Ishni tugatgach, yoqilg'i quyish joyini tozalash va chiqindilarni maxsus idishlarga joylashtirish
Ko'nikmalar:		
Texnik vositalarni tekshirish va texnik xizmat ko'rsatish		
Yoqilg'i, moy va sovitish suyuqliklarini to'ldirish		
Asbob-uskunalarni ishlata olish		
Moy yoki suyuqlik sizib chiqish belgilarini aniqlash		
Yoqilg'i bilan ishlashda xavfsizligi choralarini qo'llash		

		<p>Bilimlar:</p> <p>Buldozerning asosiy qismlari va ularga texnik xizmat ko'rsatish tartibi</p> <p>Moylash, sovitish va yoqilg'i tizimlarining ishlash prinsipi</p> <p>Texnika xavfsizligi, yong'in xavfsizligi va ekologik me'yorlar</p> <p>Yoqilg'i va moy turlarini ajratish, ularni saqlash va ishlatish shartlari</p> <p>Texnik hujjatlar bilan ishlash tartibi</p>
	<p>B1.03.3 - Ishga tushirishdan oldin barcha boshqaruv tizimlarini tekshirish hamda texnika xavfsizligi bo'yicha ko'rsatmalarga muvofiq ishga tayyorgarlik ko'rish</p>	<p>Mehnat harakatlari:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Buldozer kabinasiga kirishdan oldin tashqi ko'rikni o'tkazish: tormoz tizimi, uzatma va gidravlik quvurlar holatini ko'zdan kechirish 2. Boshqaruv organlarini ishga tayyor holatda ekanini tekshirish 3. Gidravlik tizimdagi moy darajasi, quvurlar, shlanglar va ulanish joylarida sizib chiqish yo'qligini aniqlash 4. Tormoz va uzatmalarni sinov tarzida ishga tushirish 5. Signal tizimining to'g'ri ishlashini tekshirish 6. Agar nosozlik aniqlansa, buldozerni ishga tushirmasdan rahbarga yoki mexanikga xabar berish 7. Ish boshlashdan oldin texnika xavfsizligi bo'yicha kunlik yo'riqnoma va ogohlantirish belgilarini o'rganish 8. Shaxsiy himoya vositalarini butligini tekshirish va ularni kiyish 9. Buldozerni ishga tushirishdan oldin atrofdagi odamlar va texnikaning xavfsiz masofada ekanini tekshirish 10. Yong'in o'chirish vositalari joylashuvini tekshirish 11. Ish davomida texnika xavfsizligi talablari buzilgan holatda ishni to'xtatish va rahbarga xabar berish <p>Ko'nikmalar:</p> <p>Boshqaruv tizimlarini vizual va funksional tekshira olish</p> <p>Nosozlik belgilarini aniqlay olish</p> <p>Asboblardan panelidagi ko'rsatkichlarni tahlil qilish</p> <p>Sinov jarayonida xavfsizlik choralari rioya qilish</p> <p>Gidravlik va tormoz tizimlarini yuklamasiz holatda sinovdan o'tkazish</p> <p>Ish boshlashdan oldin xavfsizlik ko'rsatmalarini bajarish</p> <p>SHVDan to'g'ri foydalanish va ularni saqlash</p> <p>Ish joyida xavfli hududlarni aniqlash va ularni belgilash</p> <p>Favqulodda holatlarda tizimni to'xtatish, signal berish</p> <p>Texnika bilan ishlashda xavfsiz masofani saqlash</p> <p>Bilimlar:</p> <p>Asosiy boshqaruv tizimlarining tuzilishi va ishlash prinsipi</p> <p>Texnika xavfsizligi va texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha yo'riqnomalar</p> <p>Texnik nosozliklarni aniqlash va ularni xabar berish tartibi</p>

		Gidravlik tizimdagi ko'rsatkichlari
		Tormoz tizimining ishonchliligi va xavfsizlik talablari
		Mehnat muhofazasi, yong'in xavfsizligi qoidalari va me'yorlar
		Xavfli zonalar va potensial xavf manbalari haqida tushuncha
		ShHVning turlari, vazifasi va qo'llash tartibi
		Favqulodda holatlarda harakat qilish ketma-ketligi
Mas'uliyat va mustaqillik:	1. Texnika xavfsizligi uchun to'liq javobgarlik	
	2. Ish joyi xavfsizligi	
	3. Ish hujjatlari va tartibga rioya qilish	
	4. Tashabbuskorlik va ogohlikka rioya qilish	
	5. Standart texnik xizmat ishlarini ko'rsatmalarga asosanib amalga oshirish	
B2.3 - Yer qazish, tekislash va surish ishlarini bajarish	B2.01.3 - Belgilangan maydonda gruntni surish, yoyish va tekislash ishlarini bajarish	Mehnat harakatlari:
		1. Ish joyi va grunt suriladigan maydonni oldindan ko'zdan kechirish, xavfsiz ish zonasini aniqlash
		2. Buldozerni grunt qatlami bo'yicha to'g'ri yo'nalishda harakatlantirish
		3. Pichoqni (otvalni) gruntning zichligi va turi bo'yicha kerakli chuqurlikda o'rnatish
		4. Gruntni belgilangan masofaga surish, yoyish va tekislash jarayonini boshqarish
		5. Grunt tekisligining sifati va qiyalik burchagini nazorat qilish
		6. Ish jarayonida boshqa texnika va xodimlar bilan muvofiqlashtirilgan harakatni ta'minlash
		7. Ish tugagach, texnikani xavfsiz joyga olib chiqish va maydonni tozalash
		Ko'nikmalar:
		Buldozerni turli grunt turlarida samarali boshqara olish
		Pichoq burchagini va chuqurligini gruntning holatiga qarab sozlay olish
		Gruntni bir tekisda yoyish va silliqlashni ta'minlay olish
		Grunt hajmini va ish maydonini to'g'ri hisoblay olish
		Qiyalik va balandlikni saqlashda aniqlikni ta'minlash
		Ish jarayonida xavfsizlik va texnik talablarga rioya qilish
		Buldozerning holatini nazorat qilish
		Bilimlar:
		Grunt turlari va ularning fizik xususiyatlari
		Buldozerning konstruksiyasi, boshqaruv elementlari va ularning vazifasi
		Grunt surish va tekislash texnologiyasi, qatlam qalinligini aniqlash usullari
Qiyalik, tekislik va yo'nalishni belgilashda foydalaniladigan geodezik asboblari haqida asosiy tushunchalar		
Ish joyida texnika xavfsizligi, aloqa signallari va texnik intizom qoidalari		
Buldozerning texnik xizmat ko'rsatish tartibi va profilaktik tekshiruv prinsiplari		

	B2.02.3 - Qazish va to'kish jarayonida gruntning turi va zichligiga qarab ish tartibini tanlash	Mehnat harakatlari:
		1. Ish maydonini ko'zdan kechirish, gruntning holati, turi hamda zichligini aniqlash
		2. Gruntning namligi va mustahkamligini baholash uchun belkurak yoki metall tayoq yordamida sirt sinovlarini o'tkazish
		3. Buldozer otvalining burchagini grunt turiga mos ravishda sozlash
		4. Qazish va to'kish yo'nalishini ish sharoiti va grunt xususiyatlariga qarab tanlash
		5. Qattiq yoki toshli grunt da avval yumshatish, keyin surish ishlarini bajarish
		6. Yumshoq yoki qumli grunt da past tezlikda, silliq harakat bilan surish ishlarini bajarish
		7. Grunt ni to'kishda hajm, zichlik va balandlikka qarab to'kish tartibini aniqlash
		8. Zarurat tug'ilganda, ish rejimini o'zgartirish
		9. Qazish-to'kish jarayonida texnika barqarorligini nazorat qilish
		10. Yakunida bajarilgan ish hajmini va gruntning tekislanish darajasini baholash
		Ko'nikmalar:
		Gruntning fizik-mexanik xususiyatlarini (namlik, zichlik, donadorlik) amaliy ravishda aniqlay olish
		Buldozerni grunt turiga mos tezlik, bosim va chuqurlik rejimida boshqara olish
		Ish yo'nalishini o'zgartirmasdan, grunt ni bir tekis surgan holda yoya olish
		Qattiq gruntlarda ishni ripper yordamida yumshata olish
		Ish joyida gruntning cho'kish yoki sirpanish xavfini oldindan baholay olish
		Grunt turiga qarab yoqilg'i sarfini optimallashtirish
		Ish samaradorligini oshirish uchun texnikaning quvvat rejimini to'g'ri tanlay olish
		Bilimlar:
		Gruntlarning turlari va ularning fizik xususiyatlari
		Gruntning zichligi, namligi va ish unumdorligiga ta'siri
		Buldozerning texnik imkoniyatlari
		Ish rejimini tanlash mezonlari
		Qazish va to'kish texnologiyasi, surish burchaklari va qatlam qalinligini hisoblash usullari
		Texnika xavfsizligi qoidalari
Mehnat unumdorligi ko'rsatkichlari va ish sifatini baholash mezonlari		
Grunt harakatlanishi va zichlash jarayonidagi fizik qonuniyatlar		

	B2.03.3 - Belgilangan yoʻnalish boʻyicha materialni surish, qiyalik va chuqurlikni nazorat qilish	Mehnat harakatlari:
		1. Ish joyining yoʻnalishi va chegaralarini aniqlab, xavfsiz ish zonasini belgilash
		2. Buldozerni ish holatiga keltirish va pichoq (otval) burchagini kerakli chuqurlikka oʻrnatish
		3. Grunt yoki materialni belgilangan yoʻnalishda bir maromda surish
		4. Qiyalik burchagini vizual yoki oʻlchov asboblari yordamida doimiy nazorat qilib turish
		5. Surilayotgan materialning qatlami bir tekisligiga eʼtibor bergan holda ishni bajarish
		6. Belgilangan chuqurlikka yetgach, pichoq holatini oʻzgartirish orqali grunt sathini tekislash
		7. Ish tugagach, bajarilgan maydonni koʻzdan kechirish va zarurat boʻlsa qayta tekislash ishlarini bajarish
		Koʻnikmalar:
		Buldozer yordamida materialni yoʻnalish boʻyicha aniq sura olish
		Qiyalik va chuqurlikni amalda aniqlash hamda ularni meʼyorda ushlab tura olish
		Har xil grunt va materiallarda optimal surish tezligi va chuqurligini tanlay olish
		Pichoqni toʻgʻri boshqarish va uni ish sharoitiga qarab sozlay olish
		Belgilangan chiziq boʻyicha harakatni barqaror saqlash
	Ish jarayonida koʻrish, eshitish va sezgi asosida xavfsizlikni taʼminlash	
	Bilimlar:	
	Grunt turlari, ularning zichligi va harakatlanish xususiyatlari	
	Buldozerning konstruksiyasi, boshqaruv tizimi va pichoq sozlamalari	
	Qiyalik va chuqurlikni oʻlchashning oddiy usullari	
	Yer sathini tekislash texnologiyasi va oʻlchov aniqligi talablari	
Texnika xavfsizligi, aloqa signallari va transport harakati qoidalari		
Yer ishlari boʻyicha meʼyoriy hujjatlar va ishlab chiqarish texnologik xaritalari		
B2.04.3 - Buldozerda ishlash vaqtida energiya tejamkor va samarali boshqaruvni amalga oshirish	Mehnat harakatlari:	
	1. Ish hajmi va grunt turiga mos optimal ish rejimini aniqlash	
	2. Dvigatelni ortiqcha yuklamasdan, oʻrtacha aylanish tezligida ishlatish	
	3. Pichoqni (otvalni) grunt holatiga mos chuqurlikda va burchakda ushlab turish	

		4. Ortiqcha manevr va bekor harakatlarni kamaytirish orqali yoqilg'i sarfini nazorat qilish
		5. Harakat yo'nalishlarini to'g'ri rejalashtirish (minimal qaytish yo'llari bilan)
		6. Gruntni surishda optimal qatlam qalinligini saqlash
		7. Ish jarayonida texnik ko'rsatkichlarni (harorat, bosim, sarf) kuzatib borish
		8. Ish tugagach, texnikani tejamkor rejimda o'chirib, texnik xizmatga tayyorlash
		Ko'nikmalar:
		Buldozerni boshqarish
		Ish jarayonini vaqt va yoqilg'i sarfi bilan tashkil etish
		Dvigatel yuklanishini baholash
		Ish maydonini rejalashtirish va yo'nalishlarni tanlash
		Texnikani tezlik va turtki bilan boshqarish va ortiqcha harakatni kamaytirish
		Ish jarayonida energiya sarfini kamaytirish
		Samaradorlik uchun texnologik jarayonni nazorat qilish
		Bilimlar:
		Buldozerning energiya tizimi, yoqilg'i sarfi va dvigatelning optimal ishlash rejimlari
		Grunt turlari va ularning qarshilik koeffitsientlari
		Tejamkor boshqaruv texnologiyalari va ishlab chiqarish samaradorligi ko'rsatkichlari
		Dvigatel va gidravlika tizimining yuklanish belgilarini aniqlash usullari
	Yoqilg'i-moylash materiallarining sifati va sarf me'yorlari	
	Texnikaning profilaktik xizmat ko'rsatish tartibi va energiya tejamkor ishlash shartlari	
	Ishlab chiqarishda resurslardan oqilona foydalanish tamoyillari	
	B2.05.3 - Buldozerda ish yakunida texnikani tozalash, tekshirish va saqlash joyiga joylashtirish	Mehnat harakatlari:
		1. Ish tugagach, texnikani xavfsiz joyda to'xtatish va pichoqni pastga tushirish
		2. Dvigatelni sovitish uchun uni bir necha daqiqa bo'sh holatda ishlatish
		3. Buldozer yuzasidagi grunt, loy va changni maxsus asboblarda yordamida tozalash
		4. Yoqilg'i, moy, gidravlik suyuqlik va sovitish tizimi darajasini tekshirish
		5. Texnika ostida suyuqlik oqishi, shikastlanish yoki bo'shashgan qismlarni aniqlash
		6. Zarur hollarda oddiy texnik xizmat moylash, vintlarni tortish, tozalashni bajarish
7. Buldozerni saqlash joyiga olib borish va to'xtatish		
8. Asbob-uskunalarni o'z joyiga joylashtirish, xavfsizlik choralarini ko'rish		

		Ko'nikmalar:
		Texnika yuzasini va harakatlanuvchi qismlarni to'g'ri tozalay olish
		Moy, yoqilg'i va gidravlika tizimidagi darajalarni tekshirib, normaga keltira olish
		Texnik nosozliklarni aniqlash va rahbarga o'z vaqtida xabar berish
		Texnikani saqlash joyida joylashtirishda xavfsiz masofani saqlay olish
		Texnikaga xizmat ko'rsatish vositalaridan (kalit, cho'tka, moylagich) to'g'ri foydalanish
		Ish joyini tartibli holatda qoldirish
		Bilimlar:
		Buldozerni ishga tayyorlash va ishni yakunlash tartibi
		Texnik xizmat ko'rsatishning birlamchi bosqichlari
		Tozalash, moylash va texnik ko'rik vositalaridan xavfsiz foydalanish qoidalari
		Saqlash joyiga qo'yish me'yorlari (masofa, pichoq holati, tormoz holati).
		Dvigatel sovitish, yoqilg'i tizimi va gidravlika tizimi ishlash prinsiplari
	Ish joyini toza va xavfsiz saqlash bo'yicha ishlab chiqarish intizomi qoidalari	
	Texnika xavfsizligi, ekologik me'yorlar va chiqindilarni to'g'ri utilizatsiya qilish talablari	
	Mas'uliyat va mustaqillik:	1. Buldozerning texnik holati, xavfsiz boshqaruvi va to'g'ri ekspluatatsiyasi uchun javobgar
		2. Ish joyida texnika xavfsizligi, ekologik me'yorlar va ishlab chiqarish intizomiga rioya etilishi uchun javobgar
		3. Texnika bilan bog'liq har qanday nosozlik, favqulodda holat yoki xavfli vaziyat haqida rahbariyatga o'z vaqtida xabar berish majburiyatiga ega
		4. Ish jarayonida rahbar tomonidan belgilangan topshiriqlarni mustaqil ravishda bajaradi
5. Texnikani boshqarish, yo'nalishni tanlash, gruntни surish chuqurligi va burchagini aniqlashda o'z tajribasi asosida qaror qabul qiladi		
6. Ish sharoiti, grunt turi va ob-havo holatiga qarab texnika rejimini mustaqil sozlaydi		
7. Zarurat tug'ilganda, oddiy texnik xizmat ko'rsatish (moylash, tozalash, qismlarini tekshirish) ishlarini mustaqil bajaradi		
8. Biroq, murakkab texnik nosozliklar yoki portlatish, burg'ilash kabi xavfli ishlar bo'yicha rahbar ko'rsatmasiga asoslanadi		
Texnik va/yoki texnologik talab:	<p>Buldozerni ishlab chiqaruvchi korxonaga yo'riqnomalari va texnik pasporti talablariga muvofiq ekspluatatsiya qilish lozim;</p> <p>Har kuni ish boshlanishidan oldin texnikani texnik ko'rikdan o'tkazishi shart;</p> <p>Dvigatel, uzatmalar, tormoz, boshqaruv va gidravlika tizimlarini tekshirishi shart;</p>	

	<p>Yoqilg'i, moy va sovitish suyuqliklari miqdorini me'yorda ushlab turish lozim;</p> <p>Texnikani xavfsiz holatda ishga tushirish va to'xtatish tartibiga rioya qilish kerak;</p> <p>Texnikaning texnik xizmat ko'rsatish davriyligiga (qat'iy amal qilish shart);</p> <p>Elektr jihozlar, signal va yoritish tizimlarining sozligini doimiy nazorat qilish lozim;</p> <p>Texnik nosozlik aniqlanganda, mustaqil bartaraf etish yoki mexanikga xabar berish muhim;</p> <p>Ish paytida texnika xavfsizligi, yo'l harakati va ishlab chiqarish xavfsizligi qoidalariga rioya qilish zarur;</p> <p>Aloqa signallari, imo-ishoralar va ogohlantiruvchi belgilarni to'g'ri tushunish va ularga amal qilish shart;</p> <p>Buldozer (turli rusumlar): Komatsu D65, Caterpillar D6/D8, Shantui SD16, T-170, B10M, ChTZ va boshqalar;</p> <p>Buldozerning otvali (pichog'i) - gruntni surish, yoyish va tekislash;</p> <p>Kabina ichidagi boshqaruv pultlari va indikatorlar;</p> <p>Yog' nasoslari, moy quyish qurilmalar;</p> <p>O'lchov asboblari: yoqilg'i darajasi o'lchagich, bosim o'lchagich (manometr), harorat o'lchagich;</p> <p>Filtrlarni tozalash va almashtirish moslamalari;</p> <p>Moy va yoqilg'i idishlari, shlanglar, quvurlar;</p> <p>Nasoslar va kompressorlar;</p> <p>Shaxsiy himoya vositalari: Kaska, ko'zoynak, quloqchin, maxsus kiyim, etik, qo'lqop.</p>
--	-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------

Kasbning nomi:	Ekskavator mashinisti	
Mashg'ulot nomining kodi:	83421	
TMR bo'yicha malaka darajasi:	3	
Malakani baholashga qo'yiladigan talablar	Tavsiya etiladi	
Amaliy tajriba (ish staji)ga qo'yilgan talablar:	Talab etilmaydi	
Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar:	<p>Kamida 18 yoshga to'lgan shaxslar; Mehnat muhofazasi, sanoat va texnika xavfsizligi, sanoat sanitariyasi me'yoriy talablari, favqulodda vaziyatlar, yong'in va elektr xavfsizligi talablari bo'yicha bilimlarni sinovdan o'tgan bo'lishi; Dastlabki va davriy tibbiy ko'rikdan o'tgan bo'lishi; O'z harakatlari, ish natijalari va boshqalarning harakatlari uchun javobgarlik; Muammolarni hal qilishda zaruratdan kelib chiqib mustaqil qaror qabul qilish; Diqqatni uzoq vaqt jamlay olish va tezkor reaksiya ko'rsatish qobiliyati; Og'ir va o'rta jismoniy yuklama ostida ishlashga tayyorgarlik; Issiq, changli, shovqinli va ochiq havoda ishlash sharoitlariga moslashuvchanlik; Muhandislik texnikasi bilan ishlashda xavfsiz harakatlanish reflekslari; Jamoaga bilan samarali muloqot qilish, topshiriqlarni tushunarli qabul va yetkazish; Dispecher, mexanik va boshqa mutaxassislar bilan muvofiqlashgan ish yuritish; Favqulodda holatlarda tinchlikni saqlab, to'g'ri qaror qabul qilish; Mas'uliyat, intizom va mehnatsevarlikni namoyon etish.</p>	
Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar:	boshlang'ich professional ta'lim; o'rta maxsus ta'lim	
Norasmiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi:	umumiy o'rta ta'lim + norasmiy (informal) ta'lim yoki amaliy tajriba	
Kasbiy standartlar reyestrda mavjudligi:		
Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari:	2-7 razryadli Ekskavator mashinisti yordamchisi	
Boshqa kasblar bilan aloqadorligi:	TMR bo'yicha malaka darajasi:	Kasbning nomi:
	2	Ochiq kon ishchisi
	4	Ekskavator mashinisti yordamchisi
	4	Og'ir yuk ko'taruvchi karyer avtosamosvali haydovchisi
	4	Elektrovoz masinisti

Mehnat funksiyalarining tavsifi		
Kodi va nomi	Mehnat vazifalari	
C1.3 - Ekskavator-ni ishga tayyorlash va kon sharoitiga moslashti-rish	C1.01.3 - Ish joyini tayyorlash va xavfsizlik talablariga rioya etish	O'qitish natijalari
		Mehnat harakatlari:
		1. Ish joyining holatini ko'zdan kechirish, xavf manbalarini aniqlash
		2. Ish maydonini belgilash va xavfsizlik zonalarini ajratish
		3. Belgilangan joydagi to'siqlar, belgilar va yo'riqnomalarga amal qilish
		4. Yoritish, shamollatish va ko'rish imkoniyatini tekshirish
		5. Ish boshlashdan avval texnik va shaxsiy himoya vositalarini tayyorlash
		6. Ish vaqtida xavfsizlikni nazorat qilish va buzilish holatlarida choralar ko'rish
		Ko'nikmalar:
		Ish joyini xavfsiz tashkil etish va ishlab chiqarish intizomini saqlash
		Xavfli zonalarni aniqlab, xavfsizlik belgilarini o'rnatish
		Himoya vositalaridan to'g'ri foydalanish
		Favqulodda vaziyatlarda harakatlanish tartibini bilish va qo'llay olish
		Ish joyidagi xavfsizlik qoidalari bo'yicha o'z vaqtida ogohlantirish berish va boshqalarga xabar qilish
		Bilimlar:
	Mehnat muhofazasi va sanoat xavfsizligi qoidalari	
	Kon va qurilish maydonlarida xavfsizlik me'yorlari	
	Shaxsiy himoya vositalarining turlari, ularni to'g'ri qo'llash tartibi	
	Ish joyini tayyorlashga doir texnik talablar va normativ hujjatlar	
	Favqulodda holatlarda birinchi yordam ko'rsatish asoslari	
	C1.02.3 - Kon sharoitiga mos ish rejimini tanlash va sozlash	Mehnat harakatlari:
		1. Kon maydonining relyefi, grunt turi va qatlam holatini tahlil qilish
		2. Ishlab chiqish maydonidagi texnik va texnologik ko'rsatkichlarni o'lchash
		3. Qazish chuqurligi, burchagi va yuklanish hajmiga qarab ekskavator rejimini tanlash
		4. Ish jarayonida ekskavatorning harakat tezligi va cho'mich yuklanishini sozlash
		5. Qazish va yuklash jarayonida texnika barqarorligini ta'minlash
		6. Ish sharoiti o'zgarishiga qarab ish rejimini qayta moslashtirish
		Ko'nikmalar:
		Grunt turi va zichligiga qarab optimal qazish rejimini aniqlay olish
		Ish joyida o'lchov asboblari va nazorat moslamalaridan foydalana olish
Ekskavatorning mexanik, gidravlik va elektr tizimlarini sozlashni bilish		
Ish unumdorligini oshirish uchun rejim parametrlarini amalda to'g'rilay olish		

		<p>O'zgartirgan kon sharoitlariga tez moslashish va texnikani xavfsiz boshqarish</p> <p>Bilimlar:</p> <p>Tog' jinslarining fizik-mexanik xususiyatlari</p> <p>Ekskavatorlarning texnik pasporti, ekspluatatsiya ko'rsatmalari va ish rejimlari</p> <p>Qazish texnologiyasi va optimal ish sikli haqida nazariy asoslar</p> <p>Ish unumdorligini belgilovchi omillar</p> <p>Ish sharoitiga mos energiya sarfi va texnik xavfsizlik qoidalari</p> <p>Ish rejimini tanlashda ekologik va ishlab chiqarish xavfsizligi me'yorlari</p>
	<p>Mas'uliyat va mustaqillik:</p>	<ol style="list-style-type: none"> 1. Ekskavatorning texnik holati, xavfsiz boshqaruvi va to'g'ri ekspluatatsiyasi uchun javobgar 2. Qazish, yuklash va grunt ishlari sifatining belgilangan texnik me'yor va ko'rsatkichlarga muvofiqligini ta'minlaydi 3. Ish joyida mehnat muhofazasi, texnika xavfsizligi, ekologik talablar hamda ishlab chiqarish intizomiga rioya etilishi uchun javobgar 4. Qazish chuqurligi, burchagi va hajmini belgilangan loyihaviy parametrlar asosida bajarilishi uchun javobgar 5. Texnikada aniqlangan nosozliklar, xavfli holatlar yoki favqulodda vaziyatlar haqida rahbariyatga o'z vaqtida xabar berish majburiyatiga ega. 6. Ish jarayonida rahbar tomonidan berilgan topshiriqlarni mustaqil ravishda bajaradi 7. Qazish yo'nalishini, ish tartibini va mashinaning joylashuvini ishlab chiqarish sharoitiga qarab mustaqil belgilaydi 8. Kon yoki grunt sharoitiga, qatlam holati va ob-havo sharoitiga qarab ekskavatorning ish rejimini mustaqil tanlay oladi 9. Kundalik texnik xizmat ishlarini (tozalash, moylash, sovutish tizimini tekshirish, sarf materiallarini yangilash) mustaqil bajaradi 10. Biroq murakkab nosozliklar, texnik ta'mir, portlatish yoki xavfli ishlab chiqarish jarayonlari bilan bog'liq holatlarda rahbar ko'rsatmasiga asoslanadi
<p>C2.3 - Tog' jinslari va grunt ni qazib olish ishlarini amalga oshirish</p>	<p>C2.01.3 - Qazish joyini tayyorlash va tog' jinslarini me'yorlarga muvofiq qazish</p>	<p>Mehnat harakatlari:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Qazish maydonining chegaralarini texnik xarita va belgilar asosida aniqlash 2. Ish joyini tozalash, xavfsiz masofalarni belgilash va tayyorlash 3. Tog' jinsining turi, zichligi va qatlam yo'nalishini aniqlash 4. Qazish chuqurligi, burchagi va hajmini belgilangan me'yorlarga muvofiq belgilash 5. Ekskavatorni ish joyiga to'g'ri joylashtirish va ishchi holatga keltirish 6. Qazish jarayonida cho'michni to'ldirish, ko'tarish va yuklash harakatlarini bajarish

		7. Qazish davomida grunt sirpanishi yoki qulashining oldini olish
		8. Ish jarayonida texnika va atrofdagi xodimlar xavfsizligini ta'minlash
		Ko'nikmalar:
		Texnik xarita va yo'riqnomalar asosida qazish joyini aniqlay olish
		Tog' jinslari xususiyatlariga qarab qazish usulini tanlay olish
		Qazish jarayonida chuqurlik va burchakni nazorat asboblari yordamida tekshira olish
		Grunt zichligiga qarab kuchlanish va tezlik rejimini moslashtira olish
		Qazish paytida texnikani barqaror holatda ushlab tura olish
		Ish jarayonida xavfsizlik choralariga rioya etish va favqulodda holatlarda tezkor harakat qila olish
		Bilimlar:
		Tog' jinslari va gruntlarning turlari hamda ularning fizik-mexanik xususiyatlari
		Qazish texnologiyasi, bosqichlari va me'yoriy chuqurlik va burchak parametrlari
		Ekskavatorlarning ishlash prinsipi, cho'mich turlari va ularning qo'llanish sohasi
		Qazish paytida yuzaga keladigan xavf-xatarlar va ularni oldini olish usullari
		Ish joyini tayyorlash, belgilash va xavfsizlik zonalarini tashkil etish qoidalari
		Texnologik jarayonlarni nazorat qilish va mehnat unumdorligini oshirish asoslari
		Mehnat muhofazasi, texnika xavfsizligi va ekologik me'yorlar
	C2.02.3 - Qazib olingan massani yuklash va joylashtirish ishlarini bajarish	Mehnat harakatlari:
		1. Qazib olingan grunt yoki tog' jinsini yuklash uchun tayyor joyni aniqlash
		2. Yuklash texnikasi joylashuvini tekshirish
		3. Ekskavator cho'michini yuklash joyiga to'g'ri yo'naltirish va massani yuklash
		4. Yuklash jarayonida texnika o'qining barqarorligini va yuk taqsimotini nazorat qilish
		5. Qazib olingan massani me'yoriy joyga joylashtirish yoki tekislash ishlarini bajarish
		6. Yuklash va joylashtirish jarayonida atrof-muhit xavfsizligi va mehnat muhofazasini ta'minlash
		7. Ish jarayonida texnikaning harakatini muvofiqlashtirish va signal berish qoidalari rioya etish
		Ko'nikmalar:
		Yuklash joyini to'g'ri aniqlash va xavfsiz masofani saqlay olish
		Ekskavator cho'michini optimal burchakda boshqarish va yukni to'liq tushira olish
		Yuklanayotgan texnika bilan ishlashni tashkillashtirish
		Qazib olingan massani me'yoriy joyga to'g'ri joylashtira olish

		<p>Ish jarayonida texnikaning yuklanish holatini kuzatish va ortiqcha yuklanishning oldini olish</p> <p>Signal berish, aloqa va muvofiqlashtirish qoidalariga amal qilish</p> <p>Ish unumdorligini oshirish uchun yuklash jarayonini optimallashtira olish</p> <p>Bilimlar:</p> <p>Tog' jinslari va gruntlarning og'irligi, zichligi hamda ularning yuklanish xususiyatlari</p> <p>Ekskavator cho'michining sig'imi, yuklash tezligi va yuk tashish texnologiyasi</p> <p>Yuklash va joylashtirish texnikasi bilan hamkorlikda ishlash qoidalari</p> <p>Ish joyida xavfsiz masofa, aloqa signallari va muvofiqlashtirish tartibi</p> <p>Mehnat xavfsizligi, texnika muhofazasi va ekologik me'yorlar</p> <p>Qazib olingan massani joylashtirishda relyef, grunt turi va barqarorlik talablari</p> <p>Ish unumdorligini baholash ko'rsatkichlari va texnologik nazorat usullari</p>
<p>C3.3 - Ekskavator-ga texnik xizmat ko'rsatish va ishchi holatda saqlash</p>	<p>C3.01.3 - Ekskavatorning texnik holatini tekshirish va nazorat qilish</p>	<p>Mehnat harakatlari:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Ish boshlanishidan oldin ekskavatorning tashqi holatini ko'zdan kechirish 2. Dvigatel, gidravlik tizim, transmissiya va tormoz tizimining ishga yaroqliligini tekshirish 3. Yoqilg'i, moy, sovutish va gidravlik suyuqliklar darajasini o'lchash va to'ldirish 4. Elektr tizimlari, chiroqlar, signal beruvchi asboblari va boshqaruv panelini sinash 5. Cho'mich, strelaning mexanik ulanish joylari, sim va shlanglarning mustahkamligini tekshirish 6. Ish paytida asboblari ko'rsatkichlarini kuzatish va og'ishlari aniqlansa to'xtatish 7. Aniqlangan nosozliklar haqida rahbar yoki mexanikga xabar berish 8. Ish boshlanishidan oldin ekskavatorning tashqi holatini ko'zdan kechirish <p>Ko'nikmalar:</p> <p>Ekskavatorning asosiy mexanik va gidravlik qismlarini tekshira olish</p> <p>Yoqilg'i-moylash tizimini to'g'ri nazorat qilish va kerak bo'lganda to'ldirish</p> <p>Asboblari paneli ko'rsatkichlarini to'g'ri talqin qila olish</p> <p>Texnik nosozlik belgilarini erta aniqlay olish</p> <p>Oddiy texnik sozlash va muvofiqlashtirish ishlarini bajara olish</p> <p>Texnik holat bo'yicha yozuvlarni yuritish va xabar berish tartibiga amal qilish</p>

		<p>Bilimlar:</p> <p>Ekskavatorning tuzilishi, asosiy qismlarining vazifasi va ishlash prinsipi</p> <p>Dvigatel, gidravlik va elektr tizimlarining asosiy elementlari</p> <p>Texnik xizmat ko'rsatish bosqichlari</p> <p>Texnik nazorat tartibi va xavfsizlik qoidalari</p> <p>Moylash, sovutish va yoqilg'i tizimlarining normal ko'rsatkichlari</p> <p>Nosozliklarni aniqlash belgilari va ularni bartaraf etish tartibi</p> <p>Mehnat muhofazasi, yong'in xavfsizligi va ekologik xavfsizlik me'yorlari</p>
	<p>C3.02.3 - Rejalashtiril- gan texnik xizmat ishlarini bajarish</p>	<p>Mehnat harakatlari:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Texnik xizmat ko'rsatish jadvalini va topshiriqlar ro'yxatini o'rganish 2. Ish boshlanishidan avval kerakli asbob-uskunalar, moylash vositalari va sarf materiallarini tayyorlash 3. Dvigatel, gidravlik tizim, transmissiya, tormoz va elektr tizimlarini reja asosida tekshirish 4. Filtrlarni tozalash yoki almashtirish, moy va texnik suyuqliklarni yangilash 5. Harakatlanuvchi qismlarni moylash va ulanish joylarini mustahkamlash 6. Zang, shovqin yoki tebranish holatlarini aniqlash va bartaraf etish 7. Texnik xizmat natijalarini maxsus daftar yoki elektron tizimda qayd etish 8. Ish tugagach, ekskavatorni tozalash va sinov ishga tushurish <p>Ko'nikmalar:</p> <p>Texnik xizmat ko'rsatish rejasiga muvofiq ishlarni ketma-ket bajara olish</p> <p>Moylash, suyuqlik almashtirish va filtr tozalash ishlarini to'g'ri bajara olish</p> <p>Texnik o'lchov asboblaridan (manometr, termometr, tester) foydalanish</p> <p>Nosozlikni aniqlashda diagnostika usullarini qo'llay olish</p> <p>Harakatlanuvchi qismlarni xavfsiz tarzda ajratish va yig'a olish</p> <p>Texnik xizmat jarayonida xavfsizlik choralariga qat'iy rioya etish</p> <p>Amalga oshirilgan ishlarni hujjatlashtirish va mexanik (yoki ustaga) hisobot berish</p> <p>Bilimlar:</p> <p>Ekskavator texnik xizmat ko'rsatish tizimi tartibi</p> <p>Dvigatel, gidravlika, transmissiya va elektr tizimlarining texnik ko'rsatkichlari</p> <p>Moylash materiallari, texnik suyuqliklar va ularning ishlatilish me'yorlari</p> <p>Diagnostika va nazorat asboblaridan foydalanish prinsiplari</p>

		Texnik xizmat xavfsizligi, yong'in va ekologik xavfsizlik qoidalari
		Texnik xizmat ishlarining mehnat gigiyenasi va ergonomik talablari
		Rejalashtirilgan xizmatni o'tkazish muddatlari va hisob hujjatlarini yuritish qoidalari
C3.03.3 - Nosozliklarni bartaraf etish hamda ekskavatorni yaroqliligini uzoq muddatda saqlash		Mehnat harakatlari:
		1. Ekskavator ish jarayonida yoki tekshiruv paytida aniqlangan nosozliklarni tahlil qilish
		2. Nosozlik sabablarini (mexanik, gidravlik, elektr yoki boshqaruv tizimi) aniqlash
		3. Zarur asbob-uskunalar, ehtiyot qismlar va texnik vositalarni tayyorlash
		4. Zarur hollarda qismlarni ajratish, tozalash, almashtirish yoki tiklash ishlarini bajarish
		5. Gidravlik va elektr tizimlarida oqish, uzilish yoki qisqa tutashuvlarni bartaraf etish
		6. Barcha tuzatish ishlaridan so'ng texnikani sinov rejimida ishga tushurish
		7. Ekskavatorning ish samaradorligini va barqarorligini kuzatish
		8. Ishdan so'ng profilaktik choralarni bajarish
		9. Texnik hujjatlarda bajarilgan ta'mir va profilaktika ishlarini qayd etish
		Ko'nikmalar:
		Texnik nosozliklarni aniqlashda diagnostika usullaridan foydalana olish
		Mexanik, gidravlik va elektr tizimlaridagi oddiy ta'mirlash ishlarini mustaqil bajarish
		Ehtiyot qismlar va sarf materiallarini to'g'ri tanlash va o'rnatish
		Yig'ish va sozlash ishlarida texnik xavfsizlik qoidalariga amal qilish
		Sinov ishga tushurishda asbob ko'rsatkichlarini to'g'ri talqin qilish
		Texnikani uzoq muddatli ekspluatatsiyaga tayyor holatda saqlash choralarni ko'rish
		Texnik xizmat natijalarini hujjatlashtirish va ustaga yoki mexanikga hisobot berish
		Bilimlar:
		Ekskavatorning mexanik, gidravlik va elektr tizimlarining tuzilishi va ishlash prinsipi
	Nosozliklarning asosiy sabablari, ularning belgilarini aniqlash va bartaraf etish usullari	
	Texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash texnologiyasi	
	Diagnostika asboblari va o'lchov moslamalarining qo'llanilishi	

		Texnika xavfsizligi, yong'in xavfsizligi va mehnat muhofazasi qoidalari
		Uskunani korroziyadan, ortiqcha yuklanishdan va texnik eskirishdan himoya qilish usullari
		Ekskavatorning ishlash muddatini uzaytiruvchi texnik profilaktika tamoyillari
	Mas'uliyat va mustaqillik:	1. Ekskavatorning texnik holati, xavfsiz boshqaruvi va to'g'ri ekspluatatsiyasi uchun javobgar
	Mas'uliyat va mustaqillik:	2. Qazish, yuklash va grunt ishlari sifatining belgilangan texnik me'yor va ko'rsatkichlarga muvofiqligini ta'minlaydi
	Mas'uliyat va mustaqillik:	3. Ish joyida mehnat muhofazasi, texnika xavfsizligi, ekologik talablar hamda ishlab chiqarish intizomiga rioya etilishi uchun javobgar
	Mas'uliyat va mustaqillik:	4. Qazish chuqurligi, burchagi va hajmini belgilangan loyihaviy parametrlar asosida bajarilishi uchun javobgar
	Mas'uliyat va mustaqillik:	5. Texnikada aniqlangan nosozliklar, xavfli holatlar yoki favqulodda vaziyatlar haqida rahbariyatga o'z vaqtida xabar berish majburiyatiga ega.
	Mas'uliyat va mustaqillik:	6. Ish jarayonida rahbar tomonidan berilgan topshiriqlarni mustaqil ravishda bajaradi
	Mas'uliyat va mustaqillik:	7. Qazish yo'nalishini, ish tartibini va mashinaning joylashuvini ishlab chiqarish sharoitiga qarab mustaqil belgilaydi
	Mas'uliyat va mustaqillik:	8. Kon yoki grunt sharoitiga, qatlam holati va ob-havo sharoitiga qarab ekskavatorning ish rejimini mustaqil tanlay oladi
	Mas'uliyat va mustaqillik:	9. Kundalik texnik xizmat ishlarini (tozalash, moylash, sovutish tizimini tekshirish, sarf materiallarini yangilash) mustaqil bajaradi
	Mas'uliyat va mustaqillik:	10. Biroq murakkab nosozliklar, texnik ta'mir, portlatish yoki xavfli ishlab chiqarish jarayonlari bilan bog'liq holatlarda rahbar ko'rsatmasiga asoslanadi
Texnik va/yoki texnologik talab:		<p>Ekskavatorni ishlab chiqaruvchi korxonadan tomonidan belgilangan texnik ekspluatatsiya qoidalari rioya etish lozim;</p> <p>Ish boshlashdan oldin ekskavatorning barcha asosiy tizimlarini (dvigatel, gidravlik, elektr, sovutish, tormoz, boshqaruv va aylantirish mexanizmlari) texnik ko'rikdan o'tkazish shart;</p> <p>Yoqilg'i, moy, sovutish suvi, gidravlik suyuqliklar va boshqa sarf materiallarining miqdori hamda sifatini me'yor doirasida saqlash zarur;</p> <p>Ekskavatorning ishchi jihozlari (cho'mich, strelasi, o'qi, shassi) ning texnik sozligi va mustahkamligini tekshirib turishi shart;</p> <p>Ish tugagach, texnikani tozalash, sovutish tizimini tekshirish, agregatlarni bo'sh holatga keltirish va xavfsiz joyda to'xtatish lozim;</p>

	<p>Qazish, yuklash va joylashtirish jarayonlarini texnik xarita va ishlab chiqarish topshiriqlariga muvofiq bajarishi lozim;</p> <p>Ish jarayonida texnika yuklanishini, energiya sarfini va unumdorligini optimal darajada ushlab turish muhim;</p> <p>Ekskavator turi va modeli: zanjirli, g'ildirakli, gidravlik, mexanik va boshqalar</p> <p>Qazish cho'michi standart, tor, keng, toshli, planlashtiruvchi turlari;</p> <p>Strelasi, boom va richaglar tizimi, aylantiruvchi platforma va shassi tizimi;</p> <p>Gidravlik boshqaruv tizimi: gidronasos, gidrotsilindr, gidrotaqsimlagich;</p> <p>Kalitlar to'plami: komplektli g'ilofli kalitlar, moment kaliti, maxsus gayka kalitlari;</p> <p>Yog'lash moslamalari:shprits, moylash pompasi, nasos</p> <p>Tozalash vositalari: cho'tka, mato, havo purkagich, suv purkash moslamasi, yoqilg'i quyish va filtrlash moslamalari;</p> <p>Batareyani tekshirish va zaryadlash uskunalari;</p> <p>Dvigatel va gidravlik tizim uchun bosim o'lchagichlar;</p> <p>Elektr zanjirlarini tekshirish uchun tester (multimetr);</p> <p>Moy, yoqilg'i va sovutish suyuqligi darajasini o'lchash asboblari</p> <p>Harorat va aylanish chastotasini nazorat qiluvchi indikatorlar;</p> <p>Himoya kiyimlari: kombinezon, qo'lqop, etik, dubulg'a, ko'zoynak, nafas niqobi;</p> <p>Signal jileti va xavfsizlik belgilarini o'rnatish to'plami;</p> <p>Yong'in o'chirgich va birlamchi tibbiy yordam qutisi;</p> <p>Xavfli zonalarni belgilovchi lenta va ogohlantiruvchi belgilar;</p>
--	------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------

V. Kasbiy standartning texnik ma'lumotlari

5.1. Kasbiy standartning rekvizitlari

1.	Kasbiy malakalarni rivojlantirish bo'yicha tarmoq kengashining tasdiqlash hujjatlari:	Tog'-kon sanoati, geologiya va mineral resurslar sohalarida kasbiy malakalarni rivojlantirish bo'yicha tarmoq kengashining "___" ___ 20__yildagi ___-sonli bayoni
2.	Milliy malaka tizimini rivojlantirish institutining xulosasi:	KS-0007-son xulosa, 26.01.2026
3.	Kasbiy standart versiyasi va ishlab chiqilgan sanasi:	1.0 - talqin, 26.01.2026
4.	Taxminiy qayta ko'rib chiqish sanasi:	25.01.2031

5.2. Kasbiy standartni ishlab chiqishga mas'ul tashkilot

Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi huzuridagi "Sharg'unko'mir"AJ

(tashkilot nomi)

Bosh direktor

Azizkulov Ma'rufjon Abduhafiz o'g'li

(rahbarning lavozimi, imzosi va F.I.O.)

5.3. Kasbiy standartni ishlab chiqishda ishtirok etgan tashkilot (korxonalar) to'g'risida ma'lumot

T/r	Ishlab chiquvchilar to'g'risida ma'lumot	
	Ish joyi va lavozimi	Familiyasi, ismi, otasining ismi
1	"Sharg'unko'mir" AJ bosh muhandisi	Pardayev M.R.
2	"Sharg'unko'mir" AJ bosh direktorining iqtisod va moliya bo'yicha o'rinbosari	Shoymatov J.Y.
3	"Sharg'unko'mir" AJ bosh mutaxassisi	Xursanova F.E.
4	"Sharg'unko'mir" AJ bosh mexanigi	Pardayev I.U.
5	"Sharg'unko'mir" AJ O'quv markazi boshlig'i	Berdiyev T.M.
6	"Sharg'unko'mir" AJ Mehnat va ish haqi bo'limi boshlig'i	Normamatov B.S.
7	"Sharg'unko'mir" AJ Mehnat muhofazasi, texnika va sanoat xavfsizligi bo'limi boshlig'i	Shukurov A.Y.
8	"Sharg'unko'mir" AJ Xodimlarni boshqarish bo'limi boshlig'i	Abbosov A.B.
9	"Sharg'unko'mir" AJ bosh energetigi	Djumayev SH.M.



**TOG‘-KON SANOATI, GEOLOGIYA VA MINERAL
RESURSLAR SOHALARIDA KASBIY MALAKALARNI
RIVOJLANTIRISH BO‘YICHA TARMOQ KENGASHI**

KASBIY STANDART
FOYDALI QAZILMALARNI OCHIQ USULDA
QAZIB OLISH